

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti
“Xorijiy til va adabiyoti-yuqori kurslar” kafedrasining 2025-yil 23 -oktabrda
o'tkazilgan yig'ilishi № 3 -sonli bayonnomasidan
KO'CHIRMA

Qatnashdilar: Kafedra mudiri, kafedra professor-o'qituvchilari

Kun tartibi:

1. Kafedra o'qituvchisi B.A.Xudoyqulovning 204-guruhda o'tkazilgan “Le preposizioni semplici” mavzusidagi 2 (ikki) soatlik ochiq amaliy dars muhokamasi to'g'risida.

ESHTILDI: Yig'ilishni “Xorijiy til va adabiyoti-yuqori kurslar” kafedrasini mudiri D.D.Tog'aymurodov kirish so'zi bilan ochib, kafedra o'qituvchisi B.A.Xudoyqulovning o'tkazilgan ochiq amaliy mashg'ulot darsida qatnashgan barcha professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi. Yig'ilish qatnashchilari ochiq amaliy dars uchun tayinlangan taqrizchilar va ular tomonidan berilgan tasviri va ichki taqrizlar bilan tanishtirib o'tdi. Ochiq ma'ruza darsida fakultetning professor-o'qituvchilari ishtirok etganligini ta'kidlab ularga fikr-mulohazalarini bildirish uchun so'z berdi.

Kafedra katta o'qituvchisi PhD D.Bobojonov so'zga chiqdi: “Dars zamonaviy pedagogik talablarga javob beradi. O'qituvchi darsni “student-centered learning (talabaga yo'naltirilgan ta'lim)” tamoyili asosida a'lo darajada tashkil etgan. Kahoot kabi platformalardan foydalanganligi darsning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa:

3. O'qituvchi B.A.Xudoyqulovning amaliy darsni tashkil etish va o'tkazish uslubi yuqori baholansin.
4. Dars jarayoniga talabalarni faol jalb etish bo'yicha o'qituvchining tajribasi ommalashtirilsin.

Yig'ilish qarori:

Kafedra yig'ilishi o'qituvchi B.A.Xudoyqulov tomonidan o'tkazilgan ochiq darsni namunalik deb topdi va uning metodikasini boshqa o'qituvchilar uchun tajriba sifatida tavsiya etishga qaror qildi.

Yig'ilish raisi:

Kotiba:



D.D.Tog'aymurodov

I.Q.Choriyeva